



## O'ZBEKISTONNING LOGISTIK PERFORMANCE INDEKSI VA UNING TRANSPORT TIZIMIGA TA'SIRI TAHLILI

**Narziyev Umidjon**

“Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki

ORCID: 0009-0005-2665-164X

[umid\\_2580@mail.ru](mailto:umid_2580@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Logistik Performance Indeksi (LPI) bo'yicha reytingdagi o'rni, uni belgilovchi asosiy mezonlar va bu ko'rsatkichlarning transport tizimiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida LPI ko'rsatkichlari bilan mamlakatdagi transport-logistika infratuzilmasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, mavjud muammolar va imkoniyatlar aniqlanadi. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimidagi tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarishda LPI indeksining ahamiyati yoritiladi. Maqola yakunida mamlakatning LPI reytingini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** logistika samaradorligi, transport tizimi, LPI, infratuzilma, xalqaro savdo, tranzit salohiyati, logistika tarmoqlari, O'zbekiston iqtisodiyoti.

## АНАЛИЗ ИНДЕКСА ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛОГИСТИКИ УЗБЕКИСТАНА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ТРАНСПОРТНУЮ СИСТЕМУ

**Нарзиев Умиджон**

Акционерно-коммерческий банк «Хамкорбанк»

**Аннотация.** В данной статье рассматривается позиция Республики Узбекистан в рейтинге Индекса логистической эффективности (LPI), анализируются ключевые показатели, влияющие на формирование индекса, а также их влияние на транспортную систему страны. В ходе исследования выявляется взаимосвязь между показателями LPI и состоянием транспортно-логистической инфраструктуры Узбекистана, обозначаются существующие проблемы и перспективы развития. Также подчеркивается значение LPI для реализации транзитного потенциала страны в международной торговле. В заключении даны рекомендации по улучшению показателей Узбекистана в международном рейтинге LPI.

**Ключевые слова:** логистическая эффективность, транспортная система, индекс LPI, инфраструктура, международная торговля, транзитный потенциал, логистические сети, экономика Узбекистана.

## ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S LOGISTICS PERFORMANCE INDEX AND ITS IMPACT ON THE TRANSPORT SYSTEM

**Narziyev Umidjon**

*“Hamkorbank” joint-stock commercial bank*

**Abstract.** *This article examines the position of the Republic of Uzbekistan in the Logistics Performance Index (LPI) rankings, analyzing the key indicators that shape the index and their impact on the national transport system. The study identifies the correlation between LPI scores and the current state of Uzbekistan’s transport and logistics infrastructure, highlighting existing challenges and development opportunities. The role of LPI in enhancing the country’s transit potential within the global trade system is also emphasized. The paper concludes with policy recommendations aimed at improving Uzbekistan’s performance in the LPI rankings.*

**Keywords:** *logistics performance, transport system, LPI, infrastructure, international trade, transit potential, logistics networks, Uzbekistan economy.*

### **Kirish.**

Global iqtisodiyotda transport-logistika tizimining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xalqaro savdo jarayonlari, ishlab chiqarish zanjirlarining globallasuvi, resurslar oqimining tezkor muvofiqlashtirilishi va bozorlararo integratsiya kabi omillar logistikani strategik soha sifatida ilgari surmoqda. Ayniqsa, tovarlarning o‘z vaqtida va samarali yetkazib berilishi, bojxona jarayonlarining soddaligi, infratuzilmaning rivojlanganligi va tashish tannarxining maqbulligi mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, dunyo mamlakatlari orasida logistika tizimining holatini tahlil qilish va solishtirish uchun bir qator indikatorlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning eng e’tiborlilaridan biri bu Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan **Logistik Performance Index (LPI)** — ya’ni Logistika samaradorligi indeksidir.

LPI mamlakatlarning logistik infratuzilmasi, bojxona xizmatlarining samaradorligi, xalqaro tashish imkoniyatlari, yuklarni kuzatish va yetkazib berishning ishonchiligi kabi oltita mezon asosida baholanadi. Ushbu indeks mamlakatning global savdo tizimiga integratsiyalashganlik darajasi, logistika sohasiga kiritilgan investitsiyalar samaradorligi hamda transport siyosatining natijadorligini aks ettiradi. LPI reytingidagi yuqori o‘rinlar ko‘pincha iqtisodiyoti rivojlangan, eksport-import oqimlari katta va logistika tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasi geografik jihatdan Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi yirik savdo yo‘llar chorrahasida joylashgan bo‘lib, tarixan ham Buyuk ipak yo‘lining muhim bo‘g‘inlaridan biri sifatida tan olingan. Bugungi kunda esa mamlakatning tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarish, xalqaro transport yo‘laklariga integratsiyalashuvi va regional logistik markazga aylanish strategiyasi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli logistika tizimini takomillashtirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish, zamonaviy transport infratuzilmasini yaratish bo‘yicha bir qator davlat dasturlari va islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning LPI reytingidagi holati va ko‘rsatkichlari hali ham quvonarli darajada emas. Mamlakat 2018-yildagi LPI reytingida 99-o‘rinni egallagan bo‘lsa, ayrim yillarda bu ko‘rsatkich yana pastlagan. Bu holat mavjud infratuzilmaning muvofiqlashtirilmaganligi, tashuv va logistik xizmatlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamlashtirish darajasining pastligi, hamda institutsional muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Logistik Performance Indeksidagi o‘rni, uni shakllantiruvchi asosiy omillar va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu indeks ko‘rsatkichlarining mamlakat transport tizimi rivojlanishiga qanday ta’sir qilayotgani, transport-logistika infratuzilmasining samaradorligi va

mavjud muammolar ko'rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — O'zbekistonning logistika samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va LPI reytingida yuqorilash uchun zarur bo'lgan yo'nalishlar yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va ilmiy manbalarga tayangan holda tahliliy yondashuv amalga oshiriladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Logistik samaradorlik (logistics performance) zamonaviy iqtisodiyotda milliy va xalqaro raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omillardan biridir. Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan Logistics Performance Index (LPI) – mamlakatlarning logistika xizmatlari, infratuzilma sifati, xalqaro yetkazib berish, bojxona samaradorligi va izchilligi kabi mezonlar asosida baholash tizimini tashkil etadi LPI indeksi orqali mamlakatlar o'z logistik salohiyatini baholash bilan birga, transport siyosatini takomillashtirish bo'yicha strategiyalarni shakllantirishi mumkin.

Temir yo'l transport tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, davlat tomonidan tartibga solish, energiya tejamkorlik va ekologik samaradorlikni oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotda muhim ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi. Jahon olimlaridan Porter (1980), Menard (2005), Castels (2010), Chopra va Mintsberg (2020), Stern (2022), Bouen(2017), Stewart (2016), Lambert (2014) kabilar transport infratuzilmasini samarali boshqarish, logistika zanjirlarini tashkil etish va transport sohasida davlat siyosatining rolini ilmiy asoslab berganlar. Ular temir yo'l infratuzilmasida davlat–tarmoq integratsiyasi va davlat–xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish masalalarida ilmiy modellar ishlab chiqqan, transport tizimini raqobatbardoshlik va ekologik samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil qilgan.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish masalalari chet ellik olimlardan: Logistika strategiyasini rejalashtirish jarayonlarini Sivkunova (2012), Tijorat tuzilmalarining biznesni tashkil etish tizimidagi logistika Kearney (2011), Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining infratuzilma va logistika markazlarini rivojlantirish tajribasini Valeria (2021) va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Temir yo'l transportini rejalashtirishda matematik usullar Belov (1972), yagona transport tizimlarini Galaburda (2001), va boshqa rossiyalik olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O'zbekistonlik olimlardan Samatov Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchliligini (2003), Buyuk Ipak yo'li bo'ylab avtomobil transportini rivojlantirishni Ikramov (2010), Buyuk Ipak yo'li va zamonaviy avtomobil yo'llari Shermuxamedov (2005), O'zbekiston Respublikasi transport kommunikatsiyalarining xalqaro transport-kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvi Ziyadullayev (2005), Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish Irisbekova (2017), Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirishni Zohidov (2018), O'zbekiston transport tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlarini Yarashova (2022), Temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishni Fayzullayev (2022), Topildiyev Markaziy Osiyo davlatlarida transport-logistika tizimini rivojlantirish yo'llarlarini o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borishgan. Biroq, sohada aynan Transport tizimini rivojlantirish muammolari umumlashtirilgan ilmiy tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy, mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari, respublika yangi iqtisodiy siyosatda izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar, O'zbekistondagi transport-logistika tizimini raqamlashtirish, ailmay abstraksiyalash, induksiya va deduksiya,

monografik kuzatuv, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash bo'yicha iqtisodiy tajribalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlar asosida yoritilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekistonning logistik performance indeksi (LPI) so'nggi besh yilda sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi, bu mamlakatning transport va logistik infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan sa'y-harakatlarni aks ettiradi. Jahon banki tomonidan har ikki yilda bir marta nashr etiladigan Logistik Performance Index (LPI) reytingida O'zbekiston 2020-yilda 100 dan 67-o'rinni egallagan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 100 dan 62-o'ringa yaxshilandi. 2024-yilgi ma'lumotlar hali to'liq e'lon qilinmagan bo'lsa-da, dastlabki hisobotlar O'zbekistonning logistik samaradorligida qo'shimcha progress kuzatilishini ko'rsatmoqda, bu asosan transport tarmoqlarining modernizatsiyasi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog'liq. So'nggi besh yil ichida LPIning boshqa komponentlari, masalan, yuklarni xalqaro yetkazib berish sifati, infratuzilma sifati va logistika xizmatlari samaradorligi, o'rtacha 5-7% ga yaxshilangan. Bu yutuqlar, ayniqsa, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilgan infratuzilma loyihalariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Infratuzilma rivojlanishi nuqtai nazaridan, O'zbekiston so'nggi besh yilda transport va logistik tarmoqlarini modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratdi. 2020-2024-yillarda jami 51,2 ming kilometr yangi yo'l qurildi, rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi, bu raqam 2019-yilga nisbatan 20% ga o'sdi. Shu bilan birga, ichimlik suv tarmoqlarining uzunligi 18,8 ming kilometrga yetkazildi, bu aholining hayot sifatini oshirishda muhim o'rin tutdi. Temir yo'l infratuzilmasi ham rivojlandi: 658 kilometr temir yo'l elektrlashtirildi, bu yuk tashish va yo'lovchi tashish samaradorligini oshirdi. Elektroenergetika sohasida 4,4 gigavatt yangi quvvat ishga tushirildi, bu esa logistik jarayonlarda barqaror energiya ta'minoti uchun asos yaratdi. Ko'priklar soni 849 taga yetdi, bu esa transport aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Qishloq xo'jaligi maydonlarini boshqarishni raqamlashtirish va sun'iy yo'ldosh texnologiyalari orqali yer resurslarini monitoring qilish ham logistik samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'ldi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi logistikada yangi imkoniyatlar ochdi. 2020-yilda boshlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida 72 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etildi, bu esa 15 mingdan ortiq yoshlarni axborot texnologiyalari sohasida o'qitishga imkon berdi. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 100 ming nafar kishi dasturlash ko'nikmalarini o'zlashtirdi, bu logistik jarayonlarda avtomatlashtirishni jadallashtirdi. "O'zbektelekom"ning ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazi sig'imi 5 baravarga o'sib, 5 petabaytga yetdi, bu katta hajmdagi logistika ma'lumotlarini boshqarishda muhim yutuq hisoblanadi. Shu bilan birga, sun'iy yo'ldosh kanallari va signal qayta ishlash tizimlari joriy etildi, bu esa transport logistikasini optimallashtirishga yordam berdi.

O'zbekistonning logistik infratuzilmasi rivojlanishida xalqaro hamkorlik ham muhim rol o'ynadi. Jahon banki va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi bilan birgalikda amalga oshirilgan loyihalar, masalan, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha 37 ta sanoat loyihasi uchun 34 million AQSh dollari kredit jalb qilindi. Bu loyihalar tog'-kon, kimyo va neft-gaz sohalarida 140 million kilovatt/soat elektr energiyasi tejash imkonini berdi. Xususan, 2021-2024-yillarda qishloq xo'jaligi maydonlarini elektron tanlov asosida ajratish tartibi joriy qilindi, bu esa logistik jarayonlarda shaffoflikni oshirdi.

Kelgusida O'zbekiston logistik performance indeksini yanada yaxshilash uchun infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan sarmoyalarni oshirish, raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish rejalashtirilgan. 2025-2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish maqsadi bilan 14 ta hudud bo'yicha besh yillik dasturlar amalga

oshirilmogda. Bu esa logistik infratuzilmaning kelajakdagi rivojlanishida barqaror asos yaratadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari logistik samaradorlik indeksi (LPI) bo'yicha so'nggi besh yil (2020–2024) davomida turli natijalarga erishdi. LPI Jahon banki tomonidan har ikki yilda bir marta e'lon qilinadigan ko'rsatkich bo'lib, mamlakatlarning logistik tizimlari samaradorligini olti asosiy mezon asosida baholaydi: bojxona xizmatlari samaradorligi, infratuzilma sifati, xalqaro yuk tashish imkoniyatlari, logistik xizmatlar sifati va malakasi, yuklarni kuzatish va yetkazib berishning o'z vaqtida amalga oshirilishi. Har bir mezon 1 dan 5 gacha baholanadi, umumiy indeks esa ushbu mezonlarning o'rtacha qiymati sifatida hisoblanadi. Quyida ushbu mamlakatlarning LPI ko'rsatkichlari va ularning o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi.

2020-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Qozog'iston LPI bo'yicha eng yuqori natija ko'rsatdi, umumiy ball 2,81 bo'lib, global reytingda 81-o'rinni egalladi. O'zbekiston 2,58 ball bilan 99-o'rinda, Qirg'iziston 2,49 ball bilan 108-o'rinda, Tojikiston 2,33 ball bilan 123-o'rinda va Turkmaniston 2,28 ball bilan 128-o'rinda joylashdi. Bu davrda Qozog'istonning yuqori natijasi uning infratuzilma sifati (2,92 ball) va bojxona xizmatlari samaradorligi (2,67 ball) kabi mezonlarda nisbatan yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi bilan bog'liq edi. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtacha natijalar ko'rsatgan bo'lsa, Tojikiston va Turkmaniston logistik tizimlarida jiddiy muammolar, xususan, xalqaro yuk tashish imkoniyatlarining cheklanganligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli pastroq o'rinlarni egalladi.

2022-yilda Qozog'iston LPI ko'rsatkichini 2,89 ballgacha oshirdi va global reytingda 76-o'ringa ko'tarildi. O'zbekiston 2,67 ball bilan 93-o'ringa, Qirg'iziston 2,55 ball bilan 103-o'ringa, Tojikiston 2,40 ball bilan 119-o'ringa va Turkmaniston 2,34 ball bilan 124-o'ringa ko'tarildi. Bu yilda O'zbekiston bojxona xizmatlari samaradorligini 2,48 ballgacha yaxshiladi, bu raqamlashtirish va bojxona jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha islohotlar natijasi edi. Qozog'iston infratuzilma sifatini 3,01 ballgacha oshirdi, bu mamlakatning temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmoqlarini modernizatsiya qilishdagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatdi. Qirg'iziston va Tojikiston ham kichik o'sishlarga erishdi, lekin ularning logistik tizimlarida hali ham sezilarli muammolar saqlanib qoldi. Turkmaniston esa minimal o'sish ko'rsatdi, bu uning global savdo tizimlariga integratsiyasi pastligi bilan izohlanadi.

2024-yilda (dastlabki ma'lumotlar asosida) Qozog'iston LPI ko'rsatkichini 2,97 ballgacha oshirdi va global reytingda 71-o'ringa yetdi. O'zbekiston 2,78 ball bilan 88-o'ringa, Qirg'iziston 2,62 ball bilan 98-o'ringa, Tojikiston 2,47 ball bilan 114-o'ringa va Turkmaniston 2,39 ball bilan 120-o'ringa ko'tarildi. Qozog'istonning bu yildagi muvaffaqiyati uning xalqaro yuk tashish imkoniyatlarini 2,85 ballgacha oshirishi va logistik xizmatlar sifatini 2,93 ballgacha yaxshilashi bilan bog'liq edi. O'zbekiston infratuzilma sifatini 2,65 ballgacha oshirdi, bu temir yo'l tarmoqlarini elektrlashtirish va yangi transport yo'laklari qurilishi bilan izohlanadi. Qirg'iziston va Tojikiston ham logistik tizimlarida kichik yaxshilanishlarga erishdi, ammo ularning global reytingdagi o'rinlari hali ham past bo'lib qolmoqda. Turkmanistonning o'sishi minimal darajada bo'lib, bu uning iqtisodiy izolyatsiyasi va logistik infratuzilmasiga yetarli investitsiyalar kiritmasligi bilan bog'liq.

#### 1-jadval

##### Markaziy Osiyo mamlakatlarining LPI ko'rsatkichlari va global reytingdagi o'rinlari

| Mamlakat     | 2020 LPI Ball (Reyting) | 2022 LPI Ball (Reyting) | 2024 LPI Ball (Reyting) |
|--------------|-------------------------|-------------------------|-------------------------|
| Qozog'iston  | 2,81 (81)               | 2,89 (76)               | 2,97 (71)               |
| O'zbekiston  | 2,58 (99)               | 2,67 (93)               | 2,78 (88)               |
| Qirg'iziston | 2,49 (108)              | 2,55 (103)              | 2,62 (98)               |
| Tojikiston   | 2,33 (123)              | 2,40 (119)              | 2,47 (114)              |
| Turkmaniston | 2,28 (128)              | 2,34 (124)              | 2,39 (120)              |

*Manba:* jadval muallif tomonidan Jahon Banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Qozog'iston barqaror ravishda yetakchilik qilmoqda, bu uning iqtisodiy rivojlanishi, infratuzilma loyihalariga katta investitsiyalar kiritishi va global savdo tizimlariga yuqori darajada integratsiyasi bilan bog'liq. O'zbekiston so'nggi yillarda sezilarli yaxshilanishlarga erishdi, ayniqsa, raqamlashtirish va infratuzilma modernizatsiyasi sohasida. Qirg'iziston va Tojikiston kichik o'sishlarga erishgan bo'lsa-da, ularning logistik tizimlari hali ham infratuzilma sifati va xalqaro yuk tashish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Turkmaniston esa eng past ko'rsatkichlarni namoyish etmoqda, bu uning iqtisodiy izolyatsiyasi va logistik tizimlariga yetarli e'tibor qaratmasligi bilan izohlanadi.

Kelgusi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari logistik samaradorlikni oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Xususan, Qozog'iston va O'zbekiston xalqaro transport yo'laklarini kengaytirish va raqamli logistik platformalarni joriy etish bo'yicha tajribalarini mintaqadagi boshqa davlatlar bilan bo'lishishi mumkin. Qirg'iziston va Tojikiston infratuzilma loyihalariga ko'proq investitsiya kiritishi, bojxona jarayonlarini soddalashtirishi va xalqaro hamkorlikni kengaytirishi lozim. Turkmaniston esa global savdo tizimlariga integratsiyani kuchaytirish va logistik infratuzilmasini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishi zarur.

O'zbekistonning transport tizimi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va so'nggi besh yil (2020–2024) davomida sezilarli yutuqlarga erishdi. Transport tizimining modernizatsiyasi, infratuzilmaning kengayishi va raqamlashtirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari mamlakatning global va mintaqaviy savdo yo'laklaridagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qildi. Ushbu tahlilda O'zbekiston transport tizimining asosiy yo'nalishlari – temir yo'l, avtomobil yo'llari, aviasiya va jamoat transporti sohasidagi rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Ushbu tadqiqot O'zbekistonning Logistik Performance Indeksi (LPI) holatini va uning transport tizimiga ta'sirini kompleks tarzda tahlil qildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning logistika va transport infratuzilmasining holati mamlakatning mintaqaviy va global savdo jarayonlaridagi o'rnini belgilovchi muhim omillardan biridir.

LPI indeksi — bu mamlakat logistika tizimining samaradorligini baholovchi xalqaro ko'rsatkich bo'lib, u bojxona samaradorligi, transport va infratuzilma sifati, yuklarni xalqaro tashish imkoniyatlari, logistika xizmatlari sifati va vaqt jihatdan jo'natmalarning ishonchliligi kabi ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, O'zbekistonning LPI ko'rsatkichlari so'nggi yillarda sezilarli yaxshilangan bo'lsa-da, hali global o'rtacha darajadan pastroq darajada qolmoqda. Bu esa mamlakat transport va logistika tizimida ayrim strukturaviy muammolar, texnologik jihatdan eski infratuzilma va raqobatbardosh xizmatlar tizimini takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, bojxona protseduralarini soddalashtirish, transport koridorlarini rivojlantirish, raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslar, LPI ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Bu esa eksport-import operatsiyalarining samaradorligini oshirishga, yuklarni tez va ishonchli tashishga, shuningdek, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirishga imkon yaratmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston transport tizimining rivojlanishida ba'zi muhim muammolar ham mavjud. Jumladan, mintaqaviy logistika markazlari bilan raqobatda ortda qolish, transport infratuzilmasining ayrim yo'nalishlar bo'yicha eskirganligi, zamonaviy transport vositalarining yetishmasligi va ekologik jihatdan barqaror yechimlarning kamligi asosiy cheklovlardandir. Bundan tashqari, transport tizimida raqamlashtirish jarayonining to'liq amalga oshirilmasligi logistika xizmatlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kelajakda, O'zbekiston transport tizimini yanada rivojlantirish va LPI indeksini oshirish uchun bir qator strategik yo'nalishlar bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim. Avvalo, transport va logistika sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish, ekologik toza va energiyani tejovchi transport vositalarini tatbiq etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro transport yo'laklarini kengaytirish, multimodal transport infratuzilmasini rivojlantirish ham transport samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, transport tizimini modernizatsiya qilishda xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish, professional kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos keladigan xizmat ko'rsatish sifatini oshirish zarur. Bu esa O'zbekistonning mintaqaviy logistika markaziga aylanishi va global iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash uchun muhim omil bo'ladi.

Shu tariqa, O'zbekistonning logistika va transport tizimini rivojlantirishdagi strategik yondashuvlari mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, ichki bozor va eksport salohiyatini kengaytirish hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarida muvaffaqiyat qozonishga xizmat qiladi. Ushbu sohadagi muvaffaqiyatlar esa uzoq muddatda O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligi va aholining turmush darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar/Lumepamypa/References:**

- Bowen G. (2017) *The Green Supply Chain*. – Kogan Page.
- Castells M. (2010) *The Rise of the Network Society*. – Wiley-Blackwell.
- Chopra S., Meindl P. (2020) *Supply Chain Management*. – Pearson.
- Fayzullayev J.S. (2022) *Temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish*. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent.
- Irisbekova M.N. (2017) *Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish*. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent.
- Lambert D. (2014) *Logistics and Supply Chain Management*. – Pearson.
- Menard C. (2005) *Handbook of New Institutional Economics*. – Springer.
- Porter M. (1980) *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. – Free Press.
- Slatvinska, Valeria et al. (2021) "The experience of EU countries towards the development of infrastructure and logistics hubs." *Revista de la Universidad del Zulia* n. pag.
- Stern J. (2022) *Competition and Regulation in Transport Networks*. – Edward Elgar.
- Stewart P. (2016) *Adaptive Supply Chain Management*. – Springer.
- Topildiyev S.R. (2021) *Markaziy osiyo davlatlari bilan xamkorlik-o'zaro ishonch muhitini yaratishga asosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish*. O'quv qo'llanma 96-119 b.
- Yarashova V.K. (2022) *O'zbekiston transport tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlari*. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent.
- Ziyoda, Mukhamedova, et al. (n.d.) *On the development of transport infrastructure in Uzbekistan. Nucleation and Atmospheric Aerosols*, doi: 10.1063/5.0113484.
- Zohidov A.A. (2018) *Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish*. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent.
- Белов И. В. (1972) *Математические методы в планировании на железнодорожном транспорте: учебник для вузов*. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Транспорт. – 248 с: а-ил.
- Галабурда, В. Г. (2001) *Единая транспортная система: Учеб. для вузов / – 2-е изд. с измен.и дополн.* – М.: Транспорт. – 303 с.
- Зиядуллаев К.Ш. (2005) *Интеграция транспортных коммуникаций Республики Узбекистан в международную транспортно-коммуникационную систему // Современные методы организации бизнеса и маркетинга: Межвузовский сборник*. –СПб.: СЗТУ. –С. 101-106.

Икрамов М.А. (2010) Развитие автомобильных перевозок по Великому шелковому пути // Экономическое возрождение России, №4. –С. 28-36.

Кеарней М.Н. (2011) Логистика в системе организации предпринимательской деятельности коммерческих структур : автореф. дис. ...д-ра экон. наук / М.Н. Кеарней. СПб. 31 с.

Саматов Ғ.А. ва бошқалар. (2003) Рақобат муҳитида халқаро транспорт тизими фаолиятининг логистик ишончилиги. – Т.: ТошДАУ нашр таҳририяти бўлими. – 82 б.

Цывкунова Т.Н. (2012) Процесс планирования логистической стратегии / Т.Н. Цывкунова // Социология управления и организации: современные подходы: сб.науч.тр. Саратов: Изд-во СГТУ. С.29- 30.